

2024 YIL MOBAYNIDA AMALGA OSHIRILGAN MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI IJROSI

2024 yilda mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq **183** ta (grafik bo'yicha 183 ta) loyiha bo'yicha **915,8 mlrd.** so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan **101,1%**ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2023 yilga nisbatan o'sish sur'ati **145,5%**ni tashkil etdi.

Xususan, 3-gidrometallurgiya zavodi uchun yangi turdag'i 4,5x6,0 metrli sharli, 7,0x2,3 metrli maydalash tegirmonlari, masofada boshqariladigan avtomatlitashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdag'i kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyyot qismlari hamda yirik avtosamosvallari uchun ehtiyyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarilib topshirildi.